SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/2025.27.12.B.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI

MUXTAROVA SITORA ALISHEROVNA

PEGANUM HARMALA CRANTZ. ENDOFIT BAKTERIYALARI: XILMA-XILLIGI, XUSUSIYATLARI VA LALMIKOR SHAROITDA NO‘XAT YETISHTIRISHDAGI POTENSIALI

03.00.12 – Biotexnologiya

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 57.08: 661.72: 581.6

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Muxtarova Sitora Alisherovna
Peganum harmala Crantz. Endofit bakteriyalari: xilma-xilligi, xususiyatlari va lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishdagi potensiali 3

Мухторова Ситора Алишеровна
Эндофитные бактерии *Peganum harmala* Crantz: разнообразие, особенности и потенциал при выращивании нута в богарных условиях 21

Muxtarova Sitora Alisherovna
Endophytic bacteria Peganum harmala Crantz: diversity, characteristics, and potential for chickpea cultivation under rainfed conditions 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 43

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.08/2025.27.12.B.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI

MUXTAROVA SITORA ALISHEROVNA

PEGANUM HARMALA CRANTZ. ENDOFIT BAKTERIYALARI: XILMA-XILLIGI, XUSUSIYATLARI VA LALMIKOR SHAROITDA NO‘XAT YETISHTIRISHDAGI POTENSIALI

03.00.12 – Biotexnologiya

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2025.1.PhD/B1420 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Alikulov Begali Saydullayevich** biologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xo‘jamshukurov Nortoji Abduxoliqovich** biologiya fanlari doktori, professor
	Tashbayev Sherzodbek Abdurasulovich biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Mikrobiologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/2025.27.12.B.11.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 5-dekabr soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M. Ulug‘bek ko‘chasi, 77 uy. Tel.:(99866)234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14373-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M. Ulug‘bek ko‘chasi, 77 uy. Tel.:(99866) 234-76-86; Fax:+998662347686.)

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “20” noyabr kuni tarqatildi.
(2026 yil “20” noyabrdagi № 3- raqamli reyestr bayonnomasi).

X.T. Boymurodov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

A.A. Nurniyozov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

X.B. Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global isishning davomli kuchayishi va qurg‘oqchilik qamrovining ortib borayotganligi oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu stress omillari ta’siri 2,5 milliard odam yashayotgan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 45%i yetishtirilayotgan quruqlikning 40%i dan ortig‘ini egallagan lalmikor maydonlarda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Qurg‘oqchil hududlardagi qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta’minotida muhim o‘rin egallasa-da, ushbu hududlardagi kuchli tuproq eroziyasi, infratuzilmasining yetarli emasligi va stress omillar ta’sir doirasining yuqoriligi kabi muammolar lalmikor maydonlardagi daromadlar o‘sishini cheklovchi omilga aylangan. Bu borada, qurg‘oqchil mintaqalardagi iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi sabab kuchayib borayotgan muammolar yechimi bilan bog‘liq tadqiqotlarni olib borish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini barqaror yetishtirish va hosildorligini oshirishda innovatsion biotexnologiyalarni yaratish hamda amaliyotda qo‘llash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida erishilgan ilmiy yutuqlar ekinlarning qurg‘oqchilikka chidamliligini oshirish va hosildorligini yaxshilash bo‘yicha istiqbolli yechimlarni taqdim etmoqda. Bu borada, lalmikor maydonlarda ekinlar yetirishda o‘simlik mikrobiomidan ajratib olingan stress omillar ta’sirini yumshatish va o‘sishni rag‘batlantirish mexanizmlariga ega bo‘lgan mikroorganizmlar faoliyatiga asoslangan vositalarning potensialini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. *Peganum harmala* (isiriq) o‘simligining qurg‘oqchil sharoitda jadal rivojlanishi va biomassa hosildorligining yuqori bo‘lishi uning mikrobiomidagi bakteriyalardagi moslanish va rag‘batlantirish mexanizmlariga bog‘liqligi to‘g‘risidagi qarashlar, mazkur o‘simlikni lalmikor sharoitda qishloq xo‘jalik ekinlari o‘sishini stimullaydigan mikroorganizmlarning yangi manbayi sifatida o‘rganishni talab etadi. O‘simlik endomikrobiotasidan ajratilgan mikroorganizmlarni samarali biologik xususiyatlariga ko‘ra saralash, tur tarkibini aniqlash va ularni amaliyotda qo‘llashning ekinlarning biometrik ko‘rsatkichlarini yaxshilash orqali hosildorligini oshirishini asoslash lalmikor maydonlar dehqonchiligi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda lalmikor maydonlarda ekinlar yetishtirish samaradorligini yaxshilash, ularning hosildorligini oshirish va o‘simlik kasalliklari hamda zararkunandalariga qarshi kurashish borasida zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, ekinlar yetishtirishda tomchilatib sug‘orishga o‘tish, lalmikor maydonlar tuproq unumdorligini oshirishda organik o‘g‘itlardan foydalanish orqali hosildorlikni yaxshilash borasida muayyan natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida [1] «qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish» bo‘yicha maqsad va vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish, jumladan, *P. harmala*ni lalmikor sharoitda qishloq

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni

xo‘jaligi ekinlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi endofit bakteriyalarning yangi manbayi sifatida tadqiq etish, ulardan patogenlarga nisbatan antagonistik faolligi yuqori bo‘lgan endofit bakteriyalarini ajratib olish, ajratilgan bakterial shtammlarning lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishda qo‘llashdagi potensialini baholash dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi va 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024 yil 24-iyundagi PQ-233-sonli “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «V. Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarning yetakchi mutaxassislari tomonidan nashr etilgan ilmiy manbalarda endofit bakteriyalarning ekstremal sharoitlardagi ekinlar tolerantligini oshirishdagi asosiy fiziologik va biokimyoviy mexanizmlari (D. Barnawal, 2012; K. Lowe, 2008; Z. Stepniewska, 2013), salbiy tavsifli abiotik omillar ta’sirini yumshatishdagi ahamiyati (S. Zeilinger, 2016) ochib berilgan. Shuningdek, qator tadqiqotlar (R. Sheibani-Tezerji, 2015; S. Shah, 2019)da ekinlarning turli rivojlanish fazalarida endofit bakteriyalar kulturasi suspenziyasi yoki ularning faoliyatiga asoslangan mikrob preparatlari bilan ishlov berish qurg‘oqchil va sho‘rlanish sharoitida o‘simliklarning barqaror rivojlanishini ta’minlaganligi qayd qilingan.

MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda o‘simliklardan ajratib olingan bakteriyalarning o‘simlik bilan o‘zaro simbiotik munosabatlari va uning ahamiyati (V. Chebotar, 2022), endofit bakteriyalarning xilma-xilligi, ularning ekinlarni fitopatogenlar va zararkunandalardan himoya qilish imkoniyatlari (Sh. Rubanov, 2022) hamda mikrobli o‘g‘itlarni qo‘llashning o‘simliklarning mahsuldorlikni belgilaydigan fiziologik ko‘rsatkichlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi (T. Bibikova, 2017) ga oid muhim natijalar olingan.

Mamlakatimizda stress omil ta’siri sharoitidagi o‘simliklardan mikroorganizmlarni ajratish, biologik xususiyatlarini aniqlash va qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda qo‘llashga doir tadqiqotlar yangicha tipdagi yo‘nalishlar hisoblanadi. Bu borada, ayrim galokserofit o‘simliklardan endofit bakteriyalar ajratib olingan, muhim biologik xususiyatlari baholangan va sistematik o‘rni belgilangan (Q. Davranov, 1999, 2011; R. Jurayeva, 2011; Z. Ismailov, Sh. Axanbayev, 2024), bug‘doy va g‘o‘za misolida endofit bakteriyalar ekinlarning muhim biometrik ko‘rsatkichlari va hosildorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar uchun asos bo‘lishi isbotlangan (G. Jumaniyozova, 2012; S. Murodova, 2018; B.

Alikulov, 2025), rizo va endofit bakteriyalarning dukkakli ekinlar yetishtirishdagi potensiali baholangan (V. Shurigin, 2017, 2019). Ammo, ilmiy manbalar adabiyotlarda *P. harmala*ning endofit bakteriyalari, ularning xususiyatlari, ekinlar yetishtirish, jumladan, lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishdagi potensialiga oid qaydlar kam uchraydi, holat bu borada chuqur tadqiqotlar olib borilmaganligini ko‘rsatadi. Keyingi yillardagi qurg‘oqchilik qamrovi ortib borayotgan sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta’minlashda ilg‘or biotexnologik yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali “Biotexnologiya, ekologiya va o‘rmonchilik” kafedrasining 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan “Agrobiologiya va biotexnologik usullar yordamida o‘simliklarni yetishtirishning samaradorligini oshirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Peganum harmala Crantz.* (isiriq) dan endofit bakteriyalarni ajratish, antifungal xususiyatlariga ko‘ra istiqbolli izolyatlarni tanlash, sistematik o‘rnini aniqlash va lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishdagi potensialini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

isiriqning vegetativ organlaridan endofit bakteriyalarni ajratish va ularning o‘sishiga haroratning ta’sirini baholash;

bakterial izolyatlarning fitopatogen zamburug‘larga nisbatan faolligini aniqlash orqali istiqbolli izolyatlarni saralash;

saralangan istiqbolli izolyatlarni morfo-kulturalogik tavsiflash va 16S rRNK sekvensi asosida sistematik o‘rnini belgilash;

uslubiy va mahalliylashtirilgan ozuqa muhitida bakterial shtammlarning o‘simliklar o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarini aniqlash;

bakterial shtamm suspenziyasi bilan urug‘ga ishlov berishning no‘xat o‘sish-rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash hamda ularni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida *Peganum harmala Crantz.* (isiriq) o‘simligidan ajratib olingan faol endofit bakteriyalar va no‘xat o‘simligi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida endofit bakteriyalarning haroratga chidamliligi, ularning antagonistik faolligi, xilma-xilligi, bakterial shtammlarning o‘simliklar o‘sishini rivojlantiruvchi xususiyatlari, no‘xatning ayrim biometrik ko‘rsatkichlar xizmat qilgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarni bajarish jarayonida mikrobiologik, biokimyoviy, biotexnologik, agrotexnologik, biometrik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

P. harmala vegetativ organlari mikrobiotasidan ajratilgan endofit bakteriyalar izolyatlaridan iborat kolleksiya shakllantirilgan, ularning orasida 24 ta izolyat yuqori haroratga bardoshli ekanligi isbotlangan;

istiqbolli izolyatlardan beshtasi (MsHpR102, MsHpR103, MsHpR108,

MsHpL103, MsHpS108) no‘xatda kasallik keltiruvchi *Leveillula taurica, Ascochyta rabiei* va *Fusarium solani* fitopatogen zamburug‘lariga nisbatan antifungal faollikka egaligi aniqlangan;

morfo-kultural tavsiflash va molekulyar-genetik usullar orqali MsHpR102, MsHpR103, MsHpR108, MsHpS108, MsHpL103 izolyatlari o‘zaro mos holda *Bacillus subtilis, Pseudomonas putida, Bacillus amyloliquefaciens, Bacillus pumilus* va *Peribacillus frigoritolerans* turlari ekanligi ko‘rsatilgan;

bakteriyalarni o‘stirish uchun ozuqa muhit tarkibi xashaki lavlagidan foydalanish asosida mahalliylashtirilgan, ushbu ozuqa muhitda bakterial shtammlarning azot fiksatsiyalash, indolil sirka kislota va ASK-deaminaza sintezlash, siderofor hosil qilish va fosfat eritish xususiyatlarini saqlab qolishi asoslangan;

laboratoriya, vegetatsion va dala tajribalarini o‘tkazish orqali *P. harmala* dan ajratilgan endofit bakteriyalar orasidan *P. putida* MsHpR103 no‘xat yetishtirish uchun istiqbolli shtamm sifatida tanlangan, uni qo‘llash orqali lalmikor sharoitda fitopatogenlar bilan zararlanish darajasini 12,1% gacha kamaytirishga, hosildorlikni 28,4% gacha oshirishga erishilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

isiriq o‘simligidan ajratilgan endofit bakteriyalarning no‘xat o‘simligida kasallik keltirib chiqaruvchi fitopatogenlarga chidamli shtammlari tanlangan, ularni o‘stirishning optimal ozuqa muhit tarkibi va sharoitlari tanlangan;

urug‘ga ekishdan oldin ishlov beruvchi vosita sifatida *P. putida* MsHpR103 shtammi kultural suyuqligi suspenziyasining sinov ishchi aralashmalari olingan va dala sharoitida no‘xat o‘simligi yetishtirishda qo‘llanilgan hamda samarador bo‘lishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi model tizimda olib borilgan tajriba natijalarning amaliyotda olingan natijalar bilan mos kelishi, olingan natijalar zamonaviy uslublarga asoslanganligi, dissertatsiya natijalarining nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi. Ilmiy natijalar tahlili zamonaviy statistik usullardan foydalanilib, Statistics Kingdom (https://www.statskingdom.com) va “Медицинская статистика” (https://medstatistic.ru) dasturlarida amalga oshirilgan, barcha tajriba natijalari 3-5 qaytariqli tajribalarning arifmetik o‘rtachalarini $p \leq 0,05$ qiymatidagi statistik ishonchlilik darajasida baholash orqali statistik sarhisob qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati isiriq o‘simligidan haroratga chidamli endofit bakteriyalarning ajratib olinganligi, fitopatogen zamburug‘larga nisbatan faolligining baholanganligi, faol shtammlarning sistematik o‘rnini zamonaviy usullar yordamida oydinlashtirilganligi, ekinlar o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlarni o‘rganish orqali amaliyotda qo‘llash bo‘yicha nazariy asoslarning yaratilganligi, natijalarning biotexnologiyaning mikroorganizmlar faoliyatiga asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish sohasining nazariy qismini to‘ldirganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati isiriqdan ajratib olingan endofit bakteriyalarning lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishda qo‘llanilganligi natijasida ekinda hosildorlik va uni belgilovchi ko‘rsatkichlarning ijobiy tavsifga ega

bo‘lganligi orqali belgilanib, erishilgan ilmiy natijalar mazkur bakteriyalarning ekinlarning o‘sishni stimullovchi vositalar tarkibiga kiritish uchun tavsiya qilingan boshlang‘ich manbalar bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Peganum harmala Crantz.* (isiriq) dan endofit bakteriyalarni ajratish, antagonistik xususiyatlariga ko‘ra istiqbolli izolyatlarni tanlash, sistematik o‘rnini aniqlash va lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishdagi potensialini baholash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

isiriqdan ajratib olingan faol *Bacillus subtilis* MsHpR102, *Pseudomonas putida* MsHpR103, *Bacillus amyloliquefaciens* MsHpR108, *Bacillus pumilus* MsHpS108 va *Peribacillus frigoritolerans* MsHpL103 shtammlari 16S rRNK nukleotidlar sekvensi bo‘yicha olingan ma’lumotlar National Center for Biotechnology Information (NCBI) ma’lumotlar bazasiga OR841349-OR841353 qayd raqamlari bilan kiritilgan (National Center for Biotechnology Information (NCBI) bazasining 2023-yil 23-noyabrdagi ma’lumotnomasi). Natijada, bazaning European Nucleotide Archive (ENA) va DNA Data Bank of Japan (DDBJ) bazalari bilan integratsiyalashuvi orqali isiriqdan ajratilgan bakteriyalar genetik materialiga oid kiritilgan ma’lumotlardan xalqaro miqyosda keng foydalanilishiga erishilgan;

o‘simliklardan ajratib olingan endofit bakteriyalarning xilma-xilligi, xususiyatlari va potensialini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan ma’lumotlardan yuqori impakt-faktorli (IF) xorijiy jurnallarda o‘simlik endofit bakteriyalarining patogenlarga chidamlilik hamda o‘sishni stimullash jarayonlari mexanizmlarini asoslashda foydalanilgan: Environmental Science and Pollution Research (2025), SJR IF 1.0, ISSN 1614-7499 (Scopus), Microbial Pathogenesis (2024), SJR IF 0.8, ISSN 1096-1208, (Scopus) va Journal of Ecological Engineering (2025), SJR IF 0.5, ISSN 2299-8993 (Scopus). Natijada, joriy tadqiqotda erishilgan ilmiy natijalarni qo‘llash orqali mahalliy va xorijiy mutaxassislarga bakteriyalarning qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishdagi potensialini chuqurroq tavsiflash imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari, jami 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi qisqartmalar ro‘yxati, kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini

rivojlantirish yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Lalmikor dehqonchilikni rivojlantirishda biotexnologiya yutuqlaridan foydalanishning zamonaviy tahlili” deb nomlangan birinchi bobida** lalmikor dehqonchilikdagi mavjud muammolar va ularning yechimiga qaratilgan innovasion yondashuvlar, ushbu yondashuvlarni amalga oshirishda zamonaviy biotexnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati, endofit bakteriyalarning umumiy tavsifi va ularning o‘simliklar o‘sishini rag‘batlantirishdagi asosiy biologik mexanizmlari bo‘yicha ma’lumotlar bayon qilingan. Natijada o‘simliklarning endofit bakteriyalaridan ekinlar yetishtirishda samarali vositalar sifatida foydalanishning dolzarbligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududi va obyektining umumiy tavsifi hamda ularni tadqiq qilish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘simlik namunalari yig‘ilgan va dala tajribalari o‘tkazilgan hududlar tavsifi keltirilgan, tadqiqot obyektlari bo‘lgan *Peganum harmala* (isiriq) va *Cicer aretinum* (no‘xat) ning xususiyatlari, tadqiqotda qo‘llanilgan mikrobiologik, biokimyoviy, biotexnologik, agrotexnologik, biometrik va statistik usullar bayon qilingan. Shuningdek ushbu bobda bakteriyalarni ajratish va o‘stirish, izolyatlarning turli haroratda kolonizatsiyalanish imkoniyatlarini aniqlash, istiqbolli izolyatlarning patogen zamburug‘larga nisbatan chidamliligini baholash, morfo-kultural va molekulyar-genetik usullar yordamida izolyatlarning sistematik o‘rnini belgilash, shtammlarning o‘simliklar o‘sishini rag‘batlantirish xususiyatlarini baholash, agrotexnologik tadbirlar va olingan natijalarni statistik qayta ishlash usullari yoritilgan. Dissertatsiya tadqiqotida obyekt sifatida isiriq (*Peganum harmala* L.) o‘simligi tanlangan. Mazkur o‘simlik qurg‘oqchilikning yuqori darajasida ham cho‘l hududlarida jadal rivojlanib, ko‘p biomassa hosil qilayotganligi mutaxassislar tomonidan bayon qilingan. Isiriqda moslashuvning yuqoriligi bir qator fiziologo-biokimyoviy mexanizmlar bilan bir qatorda, uning vegetativ organlari mikrobiotasidagi mikroorganizmlar xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligi qayd qilingan.

Dissertatsiyaning **“*Peganum harmala* Crantz. endofit bakteriyalari xususiyatlari va ularni lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishda qo‘llash biotexnologiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida isiriq endofit bakteriyalari izolyatlarining kolonizasiyalanishiga haroratning ta’siri, endofit bakteriyalar izolyatlarining antifungal xususiyatlari, endofit bakteriyalar istiqbolli izolyatlarining morfo-kultural tavsifi va sistematik o‘rni, istiqbolli shtammlarning o‘simliklar o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari, shtammlarning o‘sishiga ozuqa muhit komponentlarini o‘zgartirishning ta’siri va istiqbolli shtammlarni lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishda qo‘llash imkoniyatlari va texnologiyasiga oid tajribalar natijalari bayon qilingan. Dissertatsiya tadqiqotida dastlab, *P. harmala* o‘simligidan endofit bakteriyalarni ajratish, o‘stirish va lalmikor sharoitda qo‘llash uchun yuqori haroratga chidamli izolyatlarni saralashga qaratilgan tajribalar o‘tkazilgan (1-rasm).



1-rasm. *P. harmala* endofit bakteriyalarni ajratish va haroratga chidamlilik bo‘yicha skrining qilish

Namunalar o‘simlik keng tarqalgan O‘zbekistonning janubi-g‘arbiy mintaqalari, jumladan, Qarnobcho‘l (Samarqand viloyati Nurobod tumani) va Yettitom (Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumani)ning qurg‘oqchil maydonlaridagi populyatsiyalaridan 2023-yil bahorida yig‘ilgan. Bakteriyalar ajratib olish uchun namunalar majmuasi *P. harmala* ildizi, bargi va poyasidan ajratilgan 2000 dan ortiq segmentlardan shakllantirilgan. Qattiq LB ozuqasining yuzasida o‘sib chiqqan koloniyalarni suyuq ozuqada qayta o‘stirish orqali endofit bakteriyalarning izolyatlari ajratilgan. Har bir vegetativ organ segmentlari namunalaridan o‘sgan izolyatlar orasidan 190 tadan, jami 570 ta izolyat saralangan. Bakterial izolyatlarni 24-40 ºC oralig‘idagi 5 xildagi haroratda o‘stirish orqali, 40 ºC haroratga chidamli 24 ta izolyat tanlab olingan hamda tadqiqotning keyingi bosqichlarida tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur tajribalar natijasida, bakterial izolyatlarni o‘stirish uchun optimal harorat 28-32 ºC bo‘lishi aniqlashtirilgan (1-jadval).


1-jadval.

***P. harmala* dan ajratilgan endofit bakteriyalar izolyatlarining o‘sishiga haroratning ta’siri**

Namuna yig‘ilgan joy nomi va lokatsiyasi	**Vegetativ organ**	**Ajratilgan izolyatlar soni**	**Harorat, ºC**					**Izolyatlarning shartli nomi**
			24	**28**	**32**	**36**	**40**	
Qarnobcho‘l, (39°36'46.2"N 65°29'00.9"E), Yettitom (39°21'40.9"N 66°14'02.1"E)	Ildiz	190	141	156	177	152	11	MsHpR101-MsHpR111
	Barg	190	127	146	165	135	5	MsHpL101-MsHpL105
	Poya	190	132	148	168	143	8	MsHpS101-MsHpS108
	Jami	***570***	***400***	***450***	***510***	***430***	***24***	

Dissertatsiya tadqiqotining navbatdagi bosqichida tanlangan endofit bakterial izolyatlarning fitopatogen zamburug‘larga nisbatan antifungal faolligi o‘rganilgan.

Antifungal faollikni aniqlashning birlamchi skriningi umumqabul qilingan test kulturalar *F. oxysporum*, *F. solani* va *A. alternata* ga nisbatan amalga oshirilgan. Natijada MsHpR102, MsHpR103, MsHpR108, MsHpL103 va MsHpS108 izolyatlari tekshirilgan fitopatogenlar orasidagi ingibirlanish masofalari yuqori bo‘lgan (2-rasm).



2-rasm. *P. harmala* dan ajratilgan endofit bakteriyalarning antifungal faolligi

Tadqiqot davomida birlamchi skrining orqali fitopatogen zamburug‘larga nisbatan antifungal faolligi yuqori deb tanlangan izolyatlarning no‘xatda ildiz chirishi kasalligini keltirib chiqaradigan *Fusarium solani*, unshudring kasalligini keltirib chiqaradigan *Leveillula taurica* va askoxitoz kasalligini keltirib chiqaradigan *Ascochyta rabiei* patogenlariga nisbatan antagonistik ta’siri tekshirilgan.

2-jadval


P. harmala dan ajratilgan endofit bakteriyalar izolyatlari orasidan birlamchi skrining natijasida tanlangan istiqbolli izolyatlarning patogen zamburug‘larga chidamliligi (n=3)

Izolyatlar nomi	**Fitopatogen zamburug‘lar**		
	F. solani	*L. taurica*	*A. rabiei*
Avial, KE (tebukonazol 125 g/l + triadimefon 100 g/l.)	41,6±2,2	38,9±1,8	45,6±2,5
MsHpR102	24,8±1,6	21,8±1,3**	26,2±1,0
MsHpR103	30,4±1,8*	23,7±1,6	28,1±1,5
MsHpR108	19,5±1,0	0,0±0,0	18,0±1,3**
MsHpL103	17,6±1,0	12,2±0,7	18,6±1,1
MsHpS108	11,7±0,8**	14,8±1,0**	19,2±1,2

*Izoh. *p<0,05 da, **p<0,01 da statistik ahamiyatga ega.*

Nazorat sifatida mazkur patogenlarga umumiy ta’sir ko‘rsatadigan kimyoviy usulda olingan “Avial, KE” preparati qo‘llanilgan. Tajribalar isiriqdan ajratib olingan bakterial izolyatlar orasida MsHpR103 izolyati tekshirilgan barcha patogenlarga nisbatan yuqori faollik qayd etgan. Mazkur izolyat va *F. solani* orasida ingibirlanish masofasi 30,4±1,8 mm ni tashkil etgan bo‘lsa, *A. rabiei* va *L. taurica* bilan o‘zaro mos holda 23,7±1,6 mm va 28,1±1,5 mm masofada qolganligi qayd qilingan. Bu borada, MsHpR102 izolyati ham nisbatan ijobiy tavsifli qiymatlarga ega bo‘lganligi kuzatilgan.

Mazkur tadqiqot tipidagi aksariyat ishlarda o‘simliklardan ajratib olingan bakterial izolyatlarning sistematik o‘rnini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tadqiqot davomida isiriqdan ajratib olingan va istiqbolli deb tanlangan beshta izolyatning sistematik o‘rnini belgilashga qaratilgan tajribalar olib borilgan. Dastlab, izolyatlar morfo-kultural tavsiflangan. Unga ko‘ra, MsHpR102, MsHpR108, MsHpL103 va MsHpS108 izolyatlari tekis o‘sadigan, rangi oq yoki oqish, chetlari butun koloniyalar hosil qilgan, mikroskopik tekshirishlarda hujayralarning gram-musbat bo‘yalishi, tayoqchasimon bo‘lishi, hujayra uzunligi 2,2-2,9 mkm gacha, eni 0,2-0,5 mkm gacha ekanligi aniqlangan. Berdji aniqlagichi orqali, ushbu belgilar izolyatlarning Bacilli sinfiga mansubligini tasdiqlagan. MsHpR103 izolyati esa ko‘tarilib o‘sadigan, rangi sarg‘ish, chetlari butun koloniyalar hosil qilgan, mikroskopik tekshirishlarda hujayralarning gramm manfiy bo‘yalishi kuzatilgan. Shu bois, ushbu izolyat belgilari Proteobacteria sinfi vakillariga tegishli ekanligi bayon qilingan (3-rasm).



3-rasm. *P. harmala* dan ajratilgan istiqbolli izolyatlar koloniyalarining morfologik va mikroskopik ko‘rinishi

Endofit bakteriyalar izolyatlarining morfologik belgilari bir-biriga juda o‘xshashligi sababli ularni an’anaviy usulda aniq identifikatsiya qilish qiyinchilik tug‘diradi. Shu bilan bir qatorda, morfologik usulda tekshirish turlarni noto‘g‘ri identifikalashga olib kelish ehtimoli yuqori. Shu bois, tadqiqotda 16S rRNK genini nukleotidlar ketma-ketligi sekvenslash orqali molekulyar-genetik usullar yordamida izolyatlar tur darajasida identifikatsiyalangan. Natijada MsHpR102, MsHpR103, MsHpR108, MsHpS108, MsHpL103 izolyatlari o‘zaro mos holda *Bacillus subtilis,*


Pseudomonas putida, Bacillus amyloliquefaciens, Bacillus pumilus va *Peribacillus frigoritolerans* turlari ekanligi asoslangan (3-jadval).

3-jadval

Ajratilgan istiqbolli izolyatlar 16S rRNK geni sekvensi bo‘yicha ma’lumotlarning National Center for Biotechnology Information (NCBI) bazasidagi ma’lumotlar bilan qiyoslash natijalari

GenBank ka kiritilgan bakterial izolyatlari			**Genbankdagi mavjud ma’lumotlar bilan qiyosi**		
Shtamm nomi	**Uzun-ligi (bp)**	**Ro‘yxat raqami**	**Shtammlar nomi**	**Ro‘yxat raqami**	**O‘xshash-ligi, %**
MsHpR102	1425	OR841349	*Bacillus subtilis* GEB1	OQ642274.1	**99,79**
			Bacillus subtilis S4	LC557810.1	**99,79**
			Bacillus subtilis Bs28	OQ423163.1	**99,65**
MsHpR103	1451	OR841350	*Pseudomonas putida* JCM 21368	LC752231.1	**99,86**
			Pseudomonas putida ATCC	CP11910.01	**99,79**
			Pseudomonas putida JP13	MN238797.1	**99,66**
MsHpR108	1450	OR841351	*Bacillus amyloliquefaciens* US573	LN864508.1	**99,79**
			Bacillus amyloliquefaciens TPS17	CP085282.1	**99,66**
			Bacillus amyloliquefaciens HX0037	CP139782.1	**99,66**
MsHpS108	1433	OR841352	*Bacillus pumilus* CMMB	HE974486.1	**99,92**
			Bacillus pumilus CaI6F	KJ937291.1	**99,92**
			Bacillus pumilus 2IR	KM017130.1	**99,92**
MsHpL103	1399	OR841353	*Peribacillus frigoritolerans* NASRJ18	OL588286.1	**99,79**
			Peribacillus frigoritolerans MR-16	KY753215.1	**99,71**
			Peribacillus frigoritolerans WJB99	KU877654.1	**99,71**

Ozuqa muhiti bakteriyalarning o‘sishi va metabolizmining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, uslubiy ozuqa muhitlarining komponentlari, ayniqsa, sintetik vosita komponentlari narxi yuqori baholanadi. Aksariyat tadqiqotlarda potensialli mikroorganizmlarni ko‘paytirishda muqobil, arzon ozuqa muhitlari tarkibini ishlab chiqiladi va shtammlarning xususiyatlar optimallashtirilgan ozuqalarda sinovdan o‘tkaziladi. Shu bois, dissertatsiyasi tadqiqotining isiriqdan ajratilgan bakterial shtammlar o‘stiriladigan ozuqa muhitini optimallashtirishga qaratilgan tajribalar olib borilgan (4-rasm).




4-rasm. Mahalliylashtirilgan ozuqa muhitda o‘stirishning bakterial shtammlar o‘sishiga ta’siri

Bunda mahalliy xomashyo sifatida xashaki lavlagi ekstrakti qo‘llanilgan. Bakterial shtammlar turli nisbatlarda (25%, 50% va 75%) xashaki lavlagi ekstrakti qo‘shilgan va komponentlari minimallashtirilgan LB ozuqasida 72 soat o‘stirilgan hamda bakterial kultura zichligi spektrofotometrik usulda tekshirilgan. OD600 dan olingan spektrofotometrik tahlillar barcha shtammlarda ozuqa muhit tarkibida xashaki lavlagi miqdorining ortishi bilan zichlik kamayib borganligini, 0,5 LB (tripton -5, achitqi ekstrakti-2,5, NaCl -5, agar-10) + 0,5 XLE (22,5 g) tarkibli ozuqa muhitda o‘sgan shtammlar ko‘rsatgan qiymatlar nazorat variantidagi qiymatlarga nisbatan yaqinligini ko‘rsatgan. Natijada bakterial izolyatlarni o‘stirish uchun 0,5 LB (tripton -5, achitqi ekstrakti-2,5, NaCl -5, agar-10) + 0,5 XLE (22,5 g) tarkibli ozuqa muhitdan foydalanish tavsiya etilgan (4-rasm).

Mutaxassislarning qayd etishicha, o‘simliklar endomikrobiotasidagi bakteriyalar xo‘jayin o‘simlikning stress omillarga chidamliligini amalga oshirishda bakteriya-o‘simlik tizimida bog‘langan 40 dan ortiq mexanizmlardan foydalanadi. Ushbu mexanizmlar orasida bakteriyalarning azot fiksatsiyalash, indolil sirka kislota va ASK-deaminaza sintezlash, siderofor hosil qilish va fosfat eritish orqali noqulay sharoitda o‘simlikning o‘sishini stimullashi samarali hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, navbatdagi tajribalarda isiriqdan ajratib olingan bakterial shtammlarning o‘simliklar o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari baholangan. Tajribalar har bir xususiyatni baholash bo‘yicha metodik ozuqa, LB va xashaki lavlagi ekstrakti asosida optimallashtirilgan LB ozuqa muhitlarida amalga oshirilgan (5-rasm).

Bakteriya shtammlarining ozuqada o‘sishini vizual usulda sifat jihatdan o‘rganish natijasida xashaki lavlagi ekstrakti asosida optimallashtirilgan LB ozuqa muhitida *P. putid*a MsHpR103, *B. amyloliquefaciens* MsHpR108 va *B. pumilus* MsHpS108 shtammlari azot fiksatsiyalash va ASK-deaminaza sintezlash xususiyatlarini saqlab qolganligi qayd qilingan. Bakterial shtammlar xususiyatlarini miqdoriy baholash orqali optimallashtirilgan ozuqa muhitda *P. putid*a MsHpR103 ISK (56,8±2,7 mkg/ml) va siderofor (7,7±0,4 mkg/ml) sintezlash xususiyatlarini, *B. pumilus* MsHpS108 fosfat eritish (74,2±5,0 mkg/ml) xususiyatini boshqa shtammlarga nisbatan yuqoriroq darajada namoyon etgan. Mazkur natijalar asosida, isiriqdan ajratib olingan bakterial shtammlar azot fiksatsiyalash, indolil sirka kislota va ASK-deaminaza sintezlash, siderofor hosil qilish va fosfat eritish orqali ekinlar o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan mexanizmlarga ega, deb hisoblangan (5-rasm).

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti tipidagi aksariyat ishlarda o‘simliklardan ajratilgan bakteriyalarning amaliyotda qo‘llashdagi potensialini baholashda ularning ekinlar o‘sishini stimullaydigan vositalar uchun manba bo‘lish imkoniyatlari tadqiq etiladi. Shu bois, tadqiqotlar davomida bakterial suspenziyalar bilan ishlov berishning no‘xat (*C. aretinum*) urug‘lari unuvchanlik ko‘rsatkichlariga ta’siri laboratoriya sharoitida, tuproqning normal va cheklangan namlik darajasida no‘xat o‘simligining o‘sish-rivojlanishiga ta’siri vegetativ tajribalar sharoitida hamda no‘xat o‘simligi ayrim biometrik, fiziologik ko‘rsatkichlari va hosildorligiga ta’siri lalmikor dala sharoitida sinovdan o‘tkazilgan.



5-rasm. Bakterial shtammlarning o‘sishni rag‘batlantiruvchi xususiyatlari (Bunda: 1- *B. subtilis* MsHpR102; 2-*P. putid*a MsHpR103; 3-*B. amyloliquefaciens* MsHpR108; 4-*B. pumilus* MsHpS108; 5-*P. frigoritolerans* MsHpL103; LB - Luriya Bertani ozuqa muhiti (tarkibi, g/l): tripton -10, achitqi ekstrakti-5, NaCl -10, agar-20; 0,5 LB + 0,5 XLE - 0,5 LB (Luriya Bertani ozuqa muhiti (tarkibi, g/l): tripton -5, achitqi ekstrakti-2,5, NaCl -5, agar-10) + 0,5 XLE (Xashaki lavlagi ekstrakti: 22,5 g))

Bakterial shtammlar suspenziyalar bilan ishlov berishning no‘xat urug‘lari unuvchanlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlashga qaratilgan tajribalar suv bilan ishlov berilgan nazorat variantlarida, 3, 6, 9, 12 soat davomida 10, 20, 30 % konsentratsiyali bakterial suspenzion suyuqlik bilan ishlov berilgan tajriba variantlarda o‘tkazilgan. Barcha variantlarda bakterial shtammlar bilan ishlov berilgan urug‘larda nazorat variantiga nisbatan unuvchanlik ko‘rsatkichlari yaxshilanganligi kuzatilgan.

5-jadval

Vegetatsion tajribalar sharoitida *P. harmala* dan ajratib olingan endofit bakteriyalar istiqbolli shtammlari suspenziyasi bilan ishlov berishning no‘xat o‘simligi rivojlanishiga ta’siri (suspension suyuqlik konsentratsiyasi 20%, ishlov berish vaqti 6 soat, n=3)

Shtammlar nomi	Ildiz rivojlanishi		Poya rivojlanishi	
	Uzunligi, sm	Og‘irligi, g	Uzunligi, sm	Og‘irligi, g
Nazorat	12±0,7	1,4±0,1	27±0,6	1,1±0,1
B. subtilis MsHpR102	16±1,1**	1,5±0,1	28±1,4	1,3±0,1
*P. putid*a MsHpR103	17±0,6	2,2±0,1***	30±0,2	1,4±0,1
B. amyloliquefaciens MsHpR108	15±0,6	1,8±0,1	29±0,6	1,4±0,1
B. pumilus MsHpS108	17±0,7	2±0,1	29±0,3**	1,3±0,1
P. frigoritolerans MsHpL103	14±0,8	2±0,1	25±0,8	1,1±0,1

*Izoh.*Bunda ildiz va poyaning rivojlanish ko‘rsatkichlar tajribaning 21 kunligida o‘lchangan. **p<0,05 da, ***p<0,01 da statistik ahamiyatga ega.*

Unuvchanlik ko‘rsatkichlarini qiyoslash orqali, bakterial suspenziyalar bilan urug‘larga ishlov berishning optimal me’yori sifatida 20%li suspenziya, me’yordagi ishchi aralashma bilan ishlov berish vaqti sifatida 6 soat tanlangan. Tadqiqot davomida ajratib olingan bakteriya shtammlari suspenziyalari bilan no‘xat urug‘lariga ishlov berishning no‘xat o‘simligi o‘sishi va rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’siri vegetatsion tajribalarni o‘tkazish orqali aniqlangan. Maysa va ildiz uzunligi hamda massasini 21-kunda o‘lchash natijasida olingan ma’lumotlar endofit bakterial shtammlar suspenzion suyuqligi bilan ishlov berilgan variantlarda ko‘rsatkichlar nazorat variantidagi qiymatlarga qaraganda yaxshilanganligi, bakterial shtammlar orasida *P. putid*a MsHpR103 nisbatan yuqori darajada ta’sirga egaligini ko‘rsatgan (5-jadval). Tuproqning cheklangan namlik darajalarida (50-60%) ushbu natijaga mos tendensiya kuzatilgan. Shundan kelib chiqqan holda, dala tajribalar istiqbolli deb topilgan *P. putida* MsHpR103 shtammi bilan davom ettirilgan.

6-jadval


Ekishdan oldin urug‘ga *P. putida* MsHpR103 suspenziyasi bilan ishlov berishning dala sharoitida no‘xatning ayrim biometrik ko‘rsatkichlariga ta’siri

Ko‘rsatkichlar	Nazorat	*P. putida* MsHpR103
Ildiz ko‘rsatkichlari (n=5)		
Uzunligi, sm	10,4±0,44	12,1±0,49*
Ho‘l biomassa og‘irligi, gr/tup	0,78±0,02	0,87±0,03*
Quruq biomassa og‘irligi, gr/tup	0,06±0,002	0,08±0,002
Poya ko‘rsatkichlari (n=10)		
Uzunligi, sm	43,6±1,5	51,3±1,2*
Ho‘l biomassa og‘irligi, gr/tup	9,6±0,4	11,2±0,3
Quruq biomassa og‘irligi, gr/tup	0,67±0,08	0,86±0,04
Barg sathi, sm^2/tup	20,4±0,4	23,1±0,5*

*Izoh. *p<0,05 da statistik ahamiyatga ega.*

6-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, lalmikor dala sharoitida *P. putida* MsHpR103 suspenziyasi bilan ishlov berish no‘xatda ildiz uzunligini 16,3% gacha, ildiz massasini 32,2% gacha, poya uzunligini 17,6% gacha, poya massasini 22,8% gacha yaxshilagan, barg sathini 13,2% gacha kengaytirgan. Mazkur natijalar isiriqdan ajratib olingan *P. putida* MsHpR103 shtammi istiqbolli deb hisoblash imkonini bergan.

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan barcha tajribalarda olingan ma’lumotlar asosida *P. putida* MsHpR103 shtammini o‘stirish, bakterial suspenziya olish va uni no‘xat yetishtirishda qo‘llash biotexnologiyasi ishlab chiqilgan (6-rasm).



6-rasm. *P. putida* MsHpR103 shtammini o‘stirish, bakterial suspenziya olish va uni no‘xat yetishtirishda qo‘llash biotexnologiyasi

Tavsiya etilayotgan biotexnologiya asosida *P. putida* MsHpR103 shtammi bakterial kulturasi o‘stirilgan va supenziya asosida ishchi eritma (shartli preparat) sinov namunalari olingan. Mazkur sinov namunalari Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumaninig (39°22'25.2"N 66°13'29.3"E) lalmikor maydonlarida ishlab chiqarish sharoitida qo‘llanilgan (7-jadval).

7-jadval

Ekishdan oldin urug‘ga *P. putida* MsHpR103 suspenziyasi bilan ishlov berishning no‘xatning fitopatogenlar bilan zararlanish darajasi va hosildorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri* (n=5)

Variantlar	Fitopatogen bilan zararlanish darajasi, %	1000 ta don vazni, gr	Hosildorlik, g/m^2
Nazorat (ekishdan oldin H_2O bilan ishlov berilgan)	22,7±1,8	262,8±10,3	97,2±5,8
P. putida MsHpR103 suspenziyasi bilan ishlov berilgan	10,6±1,2**	315,6±12,2*	124,8±6,5*

*Izoh. *p<0,05 da; ** p<0,01 da statistik ahamiyatga ega.*

7-jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tavsiya etilayotgan biotexnologiyani lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishda qo‘llash ekinning zamburug‘li kasalliklar bilan zararlanishini 22,7% dan 10,6% gacha kamaytiradi, hosildorlikni esa 9,72 sentner/gektardan 12,48 sentner/gektargacha oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot yakunida *Peganum harmala Crantz.* (isiriq) o‘simligi endofit bakteriyalar ajratib olish yangi manba bo‘lib, foydali mikroorganizmlar shtammlari ajratib olinadigan o‘simliklar xilma-xilligini oshirishga xizmat qiladi, undan ajratilgan endofit bakteriyalar lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishda yuqori potensialga ega, deb xulosa qilingan.

XULOSALAR

“*Peganum harmala* Crantz. endofit bakteriyalari: xilma-xilligi, xususiyatlari va lalmikor sharoitda no‘xat yetishtirishdagi potensiali” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. *Peganum harmala Crantz.* (isiriq) ildizi, bargi va poyasidan ajratilgan 2000 dan ortiq segmentlardan qattiq LB ozuqasining yuzasida o‘sib chiqqan koloniyalarni suyuq ozuqada qayta o‘stirish orqali endofit bakteriyalarning jami 570 ta izolyati saralandi, ularni 24-40 ^oC oralig‘idagi 5 xildagi haroratda o‘stirish orqali, 40 ^oC haroratga chidamli 24 ta izolyat tanlab olindi.

2. Antifungal faollikni aniqlashning birlamchi skriningida umumqabul qilingan test kulturalar *F. oxysporum, F. solani va A. alternata* ga nisbatan jami beshta (MsHpR102, MsHpR103, MsHpR108, MsHpL103 va MsHpS108) izolyat yuqori antagonist bo‘ldi. No‘xat patogenlariga nisbatan tekshirilgan ikkilamchi skriningda eng faol izolyat sifatida MsHpR103 izolyati va *F. solani* orasida ingibirlanish masofasi 30,4±1,8 mm ni tashkil etgan bo‘lsa, *A. rabiei* va *L. taurica* bilan o‘zaro mos holda 23,7±1,6 mm va 28,1±1,5 mm masofada qolganligi qayd qilindi.

3. Morfo-kultural tavsiflash va 16S rRNK genini nukleotidlar ketma-ketligi sekvenslash orqali MsHpR102 izolyati *Bacillus subtilis*, MsHpR103 izolyati *Pseudomonas putida*, MsHpR108 izolyati *Bacillus amyloliquefaciens*, MsHpS108 izolyati *Bacillus pumilus* va MsHpL103 izolyati *Peribacillus frigoritolerans* turlari ekanligi aniqlandi.

4. Bakterial shtammlarni turli nisbatlarda (25%, 50% va 75%) xashaki lavlagi ekstrakti qo‘shilgan va komponentlari minimallashtirilgan LB ozuqasida 72 soat o‘stirilgan bakterial kulturaning spektrofotometrik tahlillari barcha shtammlarda ozuqa muhit tarkibida xashaki lavlagi miqdorining ortishi bilan zichlik kamayib borganligini, 0,5 LB (tripton -5, achitqi ekstrakti-2,5, NaCl -5, agar-10) + 0,5 XLE (22,5 g) tarkibli ozuqa muhitda o‘sgan shtammlar ko‘rsatgan qiymatlar nazorat variantidagi qiymatlarga nisbatan yaqinligini ko‘rsatdi, shu bois bakteriyalarni o‘stirishda 0,5 LB (tripton -5, achitqi ekstrakti-2,5, NaCl -5, agar-10) + 0,5 XLE (22,5 g) tarkibli ozuqa muhitdan foydalanish tavsiya etildi.

5. Xashaki lavlagi ekstrakti asosida optimallashtirilgan LB ozuqa muhitida *P. putid*a MsHpR103, *B. amyloliquefaciens* MsHpR108 va *B. pumilus* MsHpS108 shtammlari azot fiksatsiyalash va ASK-deaminaza sintezlash xususiyatlarini saqlab qoldi, *P. putid*a MsHpR103 ISK (56,8±2,7 mkg/ml) va siderofor (7,7±0,4 mkg/ml) sintezlash xususiyatlarini, *B. pumilus* MsHpS108 fosfat eritish (74,2±5,0 mkg/ml) xususiyatini boshqa shtammlarga nisbatan yuqoriroq darajada namoyon etdi.

6. No‘xat ekini ustida olib borilgan laboratoriya, vegetatsion va dala tajribalarida urug‘ga ekishdan ishlov beruvchi vosita sifatida *P. putid*a MsHpR103 nisbatan yuqori darajada ta’sirga egaligini ko‘rsatdi. Natijada *P. putida* MsHpR103 shtammini o‘stirish, bakterial suspenziya olish va uni no‘xat yetishtirishda qo‘llash biotexnologiyasi ishlab chiqildi. Mazkur biotexnologiyani amaliyotda qo‘llash lalmikor sharoitda ekinning zamburug‘li kasalliklar bilan zararlanishini 22,7% dan 10,6% gacha kamaytirdi, hosildorlikni esa 9,72 sentner/gektardan 12,48 sentner/gektargacha oshirdi. Shu bois, lalmikor sharoitida no‘xat yetishtirishda *P. putid*a MsHpR103 shtammidan foydalanish tavsiya etiladi.

РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ PhD. PhD.08/2025.27.12.B.11.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ

ТАШКЕНСКИЙ ФИЛИАЛ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИИ

МУХТАРОВА СИТОРА АЛИШЕРОВНА

ЭНДОФИТНЫЕ БАКТЕРИИ *PEGANUM HARMALA* CRANTZ: РАЗНООБРАЗИЕ, ОСОБЕННОСТИ И ПОТЕНЦИАЛ ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ НУТА В БОГАРНЫХ УСЛОВИЯХ

03.00.12 – Биотехнология

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/B1420

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском филиале Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.ssuv.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Аликулов Бегали Сайдуллаевич** доктор биологических наук (Dsc), доцент
Официальные оппоненты:	**Ходжамшукуров Нортожи Абдухоликович** доктор биологических наук, профессор
	Ташбаев Шерзодбек Абдурасулович доктор философии (PhD) по биологическим наукам, доцент
Ведущая организация:	**Институт микробиологии**

Защита диссертации состоится 5 дека.12.2026 года в 10:00 часов на собрании Научного совета PhD.08/2025.27.12.B.11.02 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, (Адрес: 140103, город Самарканд, улица М.Улугбека, дом 77. Тел.:(99866)234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии (зарегистрировано под номером 14373) Адрес: 140103, город Самарканд, улица М.Улугбека, дом 77. Тел.:(99866)234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz.)

Автореферат диссертации разослан «20» ноября 2026 года.
(протокол реестра рассылки № 3 от «20» ноября 2026 года).

Х.Т. Боймуродов
Председатель разового научного совета по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

А.А. Нурниезов
Научный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней д.ф.б.н. (PhD), доцент

Х.Б. Юнусов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Продолжающееся в мире усиление глобального потепления и расширение масштабов засухи представляют серьёзную угрозу продовольственной безопасности. Воздействие этих стрессовых факторов особенно отчётливо проявляется на богарных землях, которые занимают более 40 % суши, где проживает около 2,5 млрд людей и выращивается 45 % сельскохозяйственной продукции. Несмотря на то что сельское хозяйство в засушливых регионах играет важную роль в обеспечении продовольственной безопасности, такие проблемы, как сильная почвенная эрозия, недостаточно развитая инфраструктура и высокая степень воздействия стрессовых факторов, становятся сдерживающими факторами роста доходов на богарных землях. В связи с этим проведение исследований, направленных на решение проблем, вызванных изменением климата и дефицитом водных ресурсов в засушливых регионах, а также создание и внедрение инновационных биотехнологий для устойчивого возделывания сельскохозяйственных культур и повышения их урожайности, приобретает важное научно-практическое значение.

В результате проводимых в мире за последние годы научных исследований получены достижения, которые предлагают перспективные решения по повышению засухоустойчивости сельскохозяйственных культур и улучшению их урожайности. В связи с этим, исследование потенциала средств, основанных на активности микроорганизмов, выделенных из растительного микробиома и обладающих механизмами смягчения воздействия стрессовых факторов, а также стимуляции роста растений, при возделывании культур на богарных землях уделяется особое внимание. Интенсивное развитие и высокая продуктивность биомассы *Peganum harmala* (гармала) в засушливых условиях позволяют предположить, что эти особенности связаны с механизмами адаптации и стимуляции, присущими бактериям его микробиома, что в свою очередь, обусловливает необходимость изучения данного растения как нового источника микроорганизмов, способных стимулировать рост сельскохозяйственных культур в условиях богары. Отбор микроорганизмов, выделенных из эндомикробиота растений, по их эффективным биологическим свойствам, определение их видового состава и обоснование возможности практического применения для повышения урожайности сельскохозяйственных культур за счёт улучшения биометрических показателей имеют важное значение для повышения эффективности земледелия на богарных землях.

В нашей Республике особое внимание уделяется разработке и внедрению в практику современных технологий, направленных на повышение эффективности возделывания сельскохозяйственных культур на богарных землях, увеличение их урожайности, а также борьбу с болезнями растений и вредителями. В этом направлении, в частности, достигнуты определённые результаты по выращиванию сельскохозяйственных культур за счёт перехода на капельное орошение, а также повышения плодородия почв и урожайности

